



MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIY HAMDA UNING ARAB TILI VA ADABIYOTI RIVOJIGA QO'SHGAN HISSASI

*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
MSHF "Filologiya va tillarni o'qitish (arab tili)"*

yo'nalishi 3- bosqich talabasi

Moxlaroyim Quqonboyeva

+998992323336

[*moxlaroyimquqonboyeva@gmail.com*](mailto:moxlaroyimquqonboyeva@gmail.com)

Annotatsiya: Mahmud az-Zamaxshariy arab tili va adabiyoti rivojlanishida ulkan ishlarni amalga oshirgan taniqli olim sanaladi. Olim tomonidan yaratilgan asarlar ko'plab tilshunos hamda adabiyotshunos tadqiqotchilar tomonidan tadqiq qilinishi olim qoldirgan ilmiy merosning ahamiyati va qadr-qimmatini hamon oshib borayotganligidan dalolatdir. Maqolada Zamaxshariyning tilshunoslik hamda arab adabiyotiga oid yaratgan asarlarini tahlil qilish orqali uning soha rivojiga qo'shgan salmoqli hissasi haqida bayon etiladi.

Kalit so'zlar: arab tili, balog'at, tilshunoslik, adabiyot, alloma, "Al-Mufasssal", "Al-Kashshof".

Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariy o'z davrining mashhur fors-tojik olimi, tilshunos, adib, mutafakkir hamda mufasssir bo'lib, XI-XII asrlarda yashab o'tgan. U Xorazmning Zamaxshar qishlog'ida tug'ilgan. Bo'lajak olim yoshligidan ilmga jiddu jahd ila kirishib, bu yo'lda Buxoro, Samarqand, Nishopur hamda Bag'dod kabi ilm markazlarida bilim olgan. Zamaxshariy haqida tarixiy manbalarda shunday bayon qilinadi. "Imom az-Zamaxshariy bir oyog'i kesilgani bois bir tayoq bog'lab, ustidan uzun yaktak kiyib yurardi, ko'rgan insonlar uni oyog'i qiyshiq ekan, deb



o‘ylashardi. U kishi Bog‘dodda yurganida Ahmad ibn Ali ibn Hamid Abul-Hasan Damig‘oniy bir oyoqlarini kesilganligi haqida so‘radilar, shunda u kishi: “Bolaligimda chumchuqni o‘ynab yurib, oyog‘ini ip bilan kesib tashladim. Buni ko‘rgan onam qattiq jahllari chiqib: “Chumchuqning oyog‘ini kesganing kabi Alloh sening ham oyog‘ingni kessin”, deb qarg‘ab yubordilar. Ilm talabida Buxoroga ketyotganimda yo‘lda ulovimdan yiqilib oyog‘im sinib qoldi, og‘riq qattiq bo‘lgani uchun kesib tashashga majbur bo‘lindi”, dedilar.¹

Az-Zamaxshariy o‘sha davrda mashhur bo‘lgan ulamolardan ilm olgan. Uning ustozlaridan biri “o‘z davrining eng zo‘r allomasi” sanalgan Abu Muzar Mahmud ibn Jarir al-Zabiy al-Isfahoniy bo‘lib, u Az-Zamaxshariyga sintaksis va adabiyotdan dars bergan. Az-Zamaxshariy bu ustozni juda qadrlagan va vafot etganida, qattiq qayg‘uga tushgan. Shuningdek, Az-Zamaxshariy Abu Ali Al-Hasan bin Al-Mudzaffar An-Nisoburiydan adabiyot va prosodiyani o‘rgangan. Makkada bo‘lganida u Abu al-Husayn Ali ibn Hamza ibn Vahosdan ritorika va morfosintaksisni o‘rgangan, u esa o‘z navbatida Az-Zamaxshariydan Qur‘on tafsirlari va Qur‘onda qo‘llangan adabiy vositalardan foydalanish tamoyillarini o‘rgangan.

Butun umri davomida ilm talabida bo‘lgan Zamaxshariy o‘z ilmiy faoliyati davomida arab tili grammatikasi, tafsir, adabiyot, fiqh va falsafa fanlari sohasi rivojiga o‘zining yirik va beqiyos asarlari bilan salmoqli hissa qo‘shgan. Buyuk olim ko‘p asarlarini Makka shahrida yozadi, shu sababli “Jorulloh” ya’ni “Allohnig qo‘shnisi” degan laqabni oladi.

Zamaxshariyning arab tilshunosligi va grammatikasiga oid asarlari nodir bo‘lib, uning ijodida muhim o‘rin egallaydi. Xususan, 1121-yilda yozilgan “Al-Mufasssal” nomli kitobi arab tili nahv sarfini o‘rganish borasida butun dunyoda mashxurlik qozongan. Mazkur asar taniqli arab tilshunosi Sibavayhning arab

¹ <https://oliymahad.uz/35740>



grammatikasiga atab yozgan “Al-Kitob” nomli kitobidan keyingi ikkinchi o‘ringa qo‘yiladi.

Bu asarda jumla tuzilishi, so‘zlarning o‘zaro bog‘lanishi kabi arab tilining grammatik qonuniyatlari aniq va tizimli tarzda bayon qilingan. Shuningdek, allomaning arab tilshunosligi sohasidagi yana bir qimmatli asari “Asos al-Balog‘a” bo‘lib, u lug‘atshunoslik ilmiga bag‘ishlangan. Bu asarda arab tilining fasohati, arab tilidagi so‘zlarning ma‘nosi, frazeologik so‘z birikmalari hamda ularni amalda qo‘llash yo‘llari atroflicha bayon qilingan. Mazkur lug‘at grammatik jihatdan tashqari, ma‘no nuqtayi nazaridan ham arab tilini o‘rganishga kata yordam bergan.

Zamaxshariy arab adabiyoti sohasida ham salmoqli faoliyat yuritgan. U arab adabiyotining uslubiy jihatlarini tahlil qilgan. Uning asarlari keyingi davr adabiyotshunoslariga ham katta ta‘sir o‘tkazgan. Jumladan, uning Qur‘on tafsiriga atab yozgan “Al-Kashshof” asari o‘zining ilmiy qimmatini bilan alohida ajralib turadi. Bu asarda Qur‘on oyatlari lug‘aviy va grammatik jihatdan batafsil tahlil qilingan. Bu esa, albatta, Qur‘on balog‘ati va fasohatini o‘rganishda kata ahamiyatga egadir. Asar o‘zining uslubiy jihati hamda ilmiy va mantiqiy dalillar asosida yozilganligi bilan dunyodagi ko‘plab adabiyotshunos olimlarning e‘tirofiga sazovor bo‘lgan.

Ma‘lumki, Zamaxshariy mu‘taziliy aqidasi bo‘lgani bois, bu asar sunniy ulamolar tomonidan yetarlicha tanqidlarga uchragan. Biroq, shuni ta‘kidlash lozimki, asarni tanqid qilgan shaxslardan biri Ibn Taymiya bo‘lib, mazkur asarni arab tili va balog‘at jihatidan yuqori ilmiy qimmatga ega deya baholagan.² Umuman olganda, Al-Kashshof asari arab tilshunosligi va adabiyoti sohasida yillar o‘tsa-da o‘z qadrini yo‘qotmagan qimmatli va nodir manba bo‘lib kelmoqda.

² Ibn Taymiyya, *Majmu‘ al-Fatava*, Riyod: Majma‘ al-Malik Fahd, 1995, j. 13, b. 386–388; shuningdek qarang: *Al-Kashshofning sunniy ilmiy muhitdagi qabul qilinishi va uning lingvistik qimmatini haqida: “Forbidding the Reading of the Kashshāf: Clarifying the Mamluk Era Reception of Zamakhshari’s Qur’ān Commentary”*, *Journal of Qur’anic Studies*, 2022.



Zamaxshariy o'zining arab tili va adabiyoti borasida amalga oshirgan beqiyos xizmati tufayli "Arablarga arab tilini o'rgatgan alloma" degan yuksak maqomga sazovor bo'lgan. Adib butun hayoti davomida ilmga oshno bo'lib yashadi. Hattoki, arablar u haqida: "Ushbu oqsoq Zamaxshariy bo'lmaganda, arab tilini tushunmay o'tib ketar edik", deya ta'riflaganlar.³

XULOSA

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda xulosa qiladigan bo'lsak, Mahmud az-Zamaxshariy arab tili va adabiyoti sohasiga salmoqli hissa qo'shgan bo'lib, uning hayoti, ilmiy faoliyati hamda asarlarini keng o'rganish va tadqiq qilish muhim va dolzarb hisoblanadi. Adibning hayoti hamda ilm yo'lida bosib o'tgan yo'li keying avlod uchun ham ibrat bo'ladi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Adibning arab tili va adabiyoti sohasida yaratgan asarlari nodir bo'lib, mazkur asarlar hozirgi kunda ham soha vakillari uchun dasturulamal vazifasini o'tamoqda. "Al-Mufasssal", "Asas al-Balog'a", "Al-Kashshof" kabi asarlari butun jahonda mashxurlikka erishgan bo'lib, o'zining arab tilshunosligi va adabiyoti borasidagi beqiyos qiymati bilan alohida ajralib turadi. Ularda arab nahv va sarfi, arab tili grammatikasi, so'zlarning tuzilishi va ma'naviy tomonlari keng tahlil qilingan. Shuningdek, adibning balog'at va fasohat ilmi borasidagi qarashlari ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, hozirgi kun mutaxassislari uchun ham asosiy tadqiqot mavzularidan biriga aylangan.

Zamaxshariy merosining bugungi kundagi ahamiyati nihoyatda katta bo'lib, uning asarlari nafaqat tarixiy va ilmiy manba, balki zamonaviy ta'lim va tadqiqotlar uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Allomaning tilshunoslik, tafsir va adabiyot sohalariga oid asarlari bugungi kunda ham o'z ilmiy qiymatini saqlab qolgan.

Xususan, Zamaxshariyning **"Al-Mufasssal fi san'at al-i'rob"** asari arab tili grammatikasining eng muhim manbalaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Ushbu asarda

³ Muslim.uz



arab tilining morfologik va sintaktik qoidalari ilmiy asosda tizimlashtirilgan bo‘lib, u asrlar davomida Sharq madrasalarida asosiy darslik sifatida o‘qitilgan. Bugungi kunda ham arab tili grammatikasini o‘rganish, qiyosiy tilshunoslik tadqiqotlarini olib borish hamda klassik arab tilining xususiyatlarini tahlil qilishda “Al-Mufasssal” muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Mazkur asar til qoidalarini sodda va aniq bayon qilgani sababli ko‘plab olimlar tomonidan sharhlangan va unga izohlar yozilgan.

Shuningdek, Zamaxshariyning “Al-Kashshof” tafsiri Qur’on ilmlari va islomshunoslik yo‘nalishlarida muhim manbalardan biri hisoblanadi. Asarda Qur’on oyatlarining ma’nolari bilan bir qatorda ularning til va balog‘at xususiyatlari ham chuqur tahlil qilingan. Shu jihatdan u nafaqat diniy, balki filologik tadqiqotlar uchun ham katta ahamiyatga ega.

Allomaning “Asos al-balog‘a” asari esa arab tilining lug‘aviy boyligini o‘rganishda muhim manba bo‘lib, zamonaviy leksikografiya va uslubshunoslik tadqiqotlarida keng qo‘llanilmoqda. Unda so‘zlarning ma’nolari, uslubiy xususiyatlari va qo‘llanish holatlari batafsil yoritilgan.

Zamaxshariyning axloqiy-ma’rifiy asarlarida ilgari surilgan ilmga intilish, halollik, adolat va komil inson g‘oyalari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Bu g‘oyalar yosh avlodni ma’naviy barkamol etib tarbiyalashda muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Shunday qilib, Zamaxshariyning “Al-Mufasssal”, “Al-Kashshof”, “Asos al-balog‘a” va boshqa asarlari bugungi kunda ilm-fan, ta’lim va ma’naviyat rivojiga xizmat qilayotgan bebaho ilmiy meros hisoblanadi. Ularning mazmuni va ilmiy xulosalari zamonaviy tadqiqotlar uchun ham dolzarb bo‘lib, buyuk allomaning jahon tamadduni rivojiga qo‘shgan hissasini yaqqol namoyon etadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nosirova M. O'rta asrlar arab nahvidan namunalar (Mahmud Zamaxshariyning "Unmuzaj fi nahv" risolasi asosida). – T.: ToshDSHI nashriyoti, 2004.
2. <https://oliymahad.uz/35740>
3. S., Hodgson, Marshall G. (1977). The venture of Islam : conscience and history in a world civilization. University of Chicago Press. [ISBN 978-0-226-34683-0](#). OCLC 1158413117..
4. Names., Canada. Natural Resources Canada. Canadian Permanent Committee on Geographical (2004). Aboriginal place names: charting our heritage. Geographical Names Section, Natural Resources Canada. OCLC 987160626.
5. Ahmad Khan, Israr (2014-06-01). "Identifying Preface in the Quranic Surahs: A New Methodology of Quranic Interpretation". International Journal of Quranic Research. 6 (1): 1–16. doi:10.22452/quranica.vol6no1.1. ISSN 2590-4167.
6. Ibn Taymiyya, *Majmu' al-Fatava*, Riyod: Majma' al-Malik Fahd, 1995, j. 13, b. 386–388; shuningdek qarang: *Al-Kashshofning* sunniy ilmiy muhitdagi qabul qilinishi va uning lingvistik qimmatini haqida: "Forbidding the Reading of the Kashshāf: Clarifying the Mamluk Era Reception of Zamakhsharī's Qur'ān Commentary", *Journal of Qur'anic Studies*, 2022.
7. Muslim.uz